

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
O‘zbek milliy raqsi va xoreografiya san’ati namunalarini raqamlashtirish orqali nomoddiy madaniy merosni himoyalash, saqlash, hujjatlash va media arxiv yaratish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - O‘zbek milliy raqs san’atining merosni saqlash, hujjatlash va keng jamoatchilikka yetkazish uchun elektron arxivlar yaratiladi; - raqs namunalarini vizual-antropologik va struktura-semiotik usullar asosida hujjatlashtiriladi; - raqamli media arxivda har bir raqsga taalluqli ilmiy ma’lumot, ijrochilik tafsiloti va video-materiallar integratsiya qilinadi; - milliy raqslarning tasnifi va elektron kartografiyasi yaratiladi; - milliy raqs namunalarining foto va videosuratlarini raqamlashtirish orqali o‘quv muassasalari uchun elektron manbalar shakllantiriladi/ Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Madaniyat vazirligi tizimidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Madaniyat vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Madaniyat vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.